

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

SL5616183748

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Xo‘jalik munosabatlari**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Qorovulbozor tumani Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tomonidan 04.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qorovulbozor tumani  
yuridik markazi  
markaz rahbari:**



**A.J.BOLTAYEV**

04.11.2022

## PUDRAT SHARTNOMASI

07 «11» 2022y

18-2-38-MNQ/2022-son

Qorovulbozor tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi (keying o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan nizomi asosida harakat qiluvchi N.Sovitova bir tomondan va G'IJDUVON - PERFECT CONSTRUCTION MCHJ (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizomi asosida harakat qiluvchi SH.Rajabov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: **Қоровулбозор туман Навбахор МФЙ биносини жорий таъмирлаш илари ишлари.**

Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

### 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi 144000000(Bir yuz qir to'rt million) so'mni tashkil etadi.

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

### 3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

**Oldindan to'lov 30% 43 200 000 (Qirq uch million ikki yuz ming)**

*(bir vaqtning o'zida, avans to'lovi bilan bo'lib-bo'lib to'lash va h.k)*

3.2. To'lov shakli: **pul ko'chirish yo'li bilan**

*(to'lov talabnomasi, topshiriqnomasi, chek va h.k)*

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

### 4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi:

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022 yil 04 noyabr

Tugashi – 2022 yil 05 dekabr

#### **5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish; loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish; o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish; qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish

maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash; qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash; qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangankeyin \_\_\_\_\_ kunlik muddatda qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish; shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida

nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektни qabul qilib olish.

#### **6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma bahosining foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to'lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

#### **7. FORS-MAJOR**

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz \_\_oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

#### **8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi. 8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar javogar joylashgan hududdagi tegishli sud tartibida hal qilinadi.

#### **9. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV**

9.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha shu jumladan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlardagi korrupsiyaga qarshi shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishni kafolatlaydi. 9.2. Istemolchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari direktori xodimlari agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki uning vakili sifatida xarakat qilib ta'minotchi korxonaning xamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjatlarning korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi

## 10. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:

G'IJDUVON - PERFECT  
CONSTRUCTION MCHJ  
SOHIBIYON MFY DENOV Q-Q

Tel: 99890 744 37 64

H/R : 20208000205254275001

MFO: 00401

STIR: 307570877

Toshkent shahar "Aloqabank" bosh ofis



Z. Jumayev

Buyurtmachi:

Qorovulbozor Mahalla va oilani qo'llab  
quvvatlash bo'limi

Geologlar ko'chasi 1 uy

Tel 65 364 11 80

SHXV 401722860062327011402259002

STIR 207318637

Qorovulbozor G'aznachilik bo'limi

H/R 23402000300100001010

MFO 00014

STIR 201122919



N. Sovitova